



M

Mahmudxo`ja Behbudi
tavalludining (1875-1919) 149 yilligiga
bag'ishlangan

“Millatning ulug` farzandi” nomli
kitobxonlarga

ESLATMA

Do`
Stlik Shahri

Tuzuvchi:Axborot bibliografiya xizmat rahbari M.A.Raximova

Mahmudxo`ja Behbudiy

tavalludining (1875-1919) 149 yilligiga bag'ishlangan

“Vatanimizning birinchi qahramoni” nomli kitobxonlarga eslatma.



O`zbek drammaturgiyasiga asos soladi.

Taxallusi: Behbudiy (behbud- foyda, najot,sog`lomlik;baxtli, osoyishta).

Yoshligida:Arab,fors,turkey tillarni o`rganadi.

Muttasil o`qib brogan gazetasi: Tarjumon.

Sayohatlari:Arabiston,Turkiya,Orenburg,Qozon,Moskva,Peterburg

shaharlarida bo`ladi bu uning dunyoqarashida chuqr iz qoldiradi.

Behbudiy yaratgan qo`llanmalar: “Bolalar uchun kitob”, “Rusiyaning qisqacha jo`g`rofiyasi”, “Aholi jo`g`rofiyasiga kirish”.

Behbudiying boqiy fikrlari;

Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbanlik sifatida kerak bo`lsa biz o`limni ham xursandlik bilan kutub olamiz.

Haq olinur berilmas.

Yeti pustini bilamaydigan, avlod ajdodini tanimaydigan kimsalarni manquq derlar.

Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib (maktablar) taraqqiyotning boshlang`ichi madaniyat va saodatning darvozasidir.

Har bir millat, eng avval makotibi ibtidoisini zamoncha isloh etib ko`payturmaguncha taraqqiy yo`liga kirib madaniyatdan foydalanmas.

O`zbek adabiyotidagi birichi dramani “Padarkush yoki o`qumog`on bolaning holi”ni yozadi.



Murakkab va fojeali asarda yashab, o`zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va ma`rifiy taraqqiyotiga bebaho hissa qo`shgan, mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo`lish yo`llarini qaxramonlarcha axtargan hamda shu qutlug` yo`lda halok bo`lgan ajdodlarimiz orasida Maxmudho`ja Behbudiy alohida hurmat va e`tiborga sazovor.

Maxmudxo`ja Behbudiy (1875-1919) alloma, yozuvchi, jamoat arbobi va o`zbek dramaturgiyasi asoschisi. Jadidchilik harakati, ya`ni yangicha o`quv metodikasi lideri.

Mahmudxo`ja Behbudiy 1875-yil 20-yanvarda Samarqand shahrida muftiyilar oilasida dunyoga kelgan. Behbudiy voyaga yetgan atrof-muhit uning dunyo qarashiga hech qanday ta`sir ko`rsatmagan.

Mahmudxo`janing otasi islom dinining yirik mutaxassisini bo`lgan va dinka oid qator maqolalar yozgan, ilmiy ishlar olib borganligi bois, ushbu atrof-muhim bolakayning dunyoqarashiga ta`sirsiz bo`lmagan.

Behbudiy adabiyot, tarix fanlari bilan birga u siyosatni ham o`rgangan. Gazeta va jurnallar orqali dunyoda sodir bo`layotgan yangiliklar bilan tanishib borgan. Makka, Misr hamda Istanbulga bo`lgan sayohatlari uning dunyoqarashini butunlay o`zgartirib yuborgan. U gazeta va jurnallar bilan hamkorlikni o`rnatib, o`z maqolalarini chop eta boshladi, ularda mакtab va san`atni yaxshilash masalalarini ko`tarar edi.

Behbudiy “Oyna” gazetasi asoschisi, muharrir I.Gasprinskiyning “Tarjumon” gazetasini doimiy muallifi bo`lgan. Mahmudxo`ja 200 dan ziyod o`zbek va tojik

tillaridagi nashrlar muallifi. Xususan, "Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy" - "Qisqacha umumiy jug‘rofiya" (1903), "Kitob-ul-atfol" - "Bolalar uchun kitob" (1904) va boshqalar. Behbudiyning yozuvchilik poydevori nuqtasi 1911-yil Samarqandda yozilgan "Padarkush" dramasi sanaladi. Unda yosh avlod ma'lumotli va madaniyatli bo‘lishi kerakligi keltirilgan. Drama ilk bor 1912-yil "Turon" gazetasida bosib chiqarilgan, 1913-yilda esa alohida kitob ko‘rinishida nashr etilgan.

Behbudiyning sahna asari katta muvaffaqiyat qozongan va Samarqand, Buxoro hamda Toshkent shaharlari teatrlarida sahnalashtirilgan. Kompozitsion nuqtai nazardan asar odimona ko‘rinsada, g‘oyaviy juda murakkab va drama janrining barcha talablariga javob bera oladi. O‘zbek dramaturgiyasining birinchi qaldirg‘ochi bo‘lib, A. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Mirmuxsina-Fikriyaning "Farzandsiz Ochildiboy" va Hamzaning bir qator asarlarining yaratilishida turtki bo‘ldi.

Behbudi 1919-yil Qarshida sayohat davri qo‘lga olindi va Said Olimjonning buyrug‘iga binoan qatl etildi.

Sadriddin Ayniy allomaning fojeali vafoti munosabati bilan bunday yozgan: «Jafokash shoir Behbudiyning nomini musulmon Sharqi hurmat bilan tilga oladi, chunki u 20 yil mobaynida o‘zining ongi va insoniy qadru qimmatini bilgan barcha mavjudotni erkin hayot, nur va ma’rifat uchun kurashga chorlab keldi».

Qarshi shahri 1920-1930-yillarda Behbudi nomi bilan atalgan. Behbudi nomi 1937-yilga kelib qatag‘on qilinadi va 1956-yilda oqlanadi.



Hozirgi kunda alloma qoldirgan boy va rang-barang adabiy, madaniy va ma’rifiy me`ros o‘z xalqining istiqloliga xizmat qilmoqda.

1977-yil Behbudiyning "Saylanma"si chop etildi. Ushbu to‘plam o‘z ichiga darslik va o‘quv-qo‘llanmalarni olgan, hozirgi kunda ko‘chalar va maktablarga uning nomi berilgan.


U 1899-yilda hajga borib, u yerdan muftiy unvoniga ega bo‘lib qaytgan. Qarshi shahri 1920-1930-yillarda Behbudi nomi bilan atalgan. Behbudi o‘zbek va fors-tojik tillarida ikki yuzdan ortiq maqola va asarlar yaratgan. Jumladan, «Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jug‘rofiya» 1903), «Kitob-ul-

atfol» («Bolalar uchun kitob», 1904), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi», 1904), «Amaliyoti islom» (1905), «Rusiyaning qisqacha jug‘rofiyasi» (1908) kabi darslik va kitoblar yozgan.

Uning 1901 yildan boshlab «Turkiston viloyati gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Tujjor», «Osiyo», «Hurriyat», «Turon», «Sadoi Turkiston», «Ulug‘ Turkiston», «Najot», «Mehnatlashlar tovushi», «Tirik so‘z», «Tarjumon», «Sho‘ro», «Vaqt», «Toza hayot», «Samarqand», «Oyna» kabi gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalari esa taraqqiyarvar kishilar va, ayniqsa, yoshlarning diqqat-e’tiborini qozongan.



U ayni chog‘da yangi usuldagi maktablarning asoschisi va targ‘ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham bo‘ldi. Xullas, Mahmudxo‘ja Behbudiy buyuk ma’rifatparvar va yetakchi jadidchi sifatida milliy madaniyatimiz tarixidan mustahkam o‘rin egallaydi.



БЕҲБУДИЙНИНГ ВАСИЯТИ

Ўз қарашлари, орзу-интилишлари ва эътиқоди билан ҳалқнинг истиқболи, озод ва фаровон ҳаёти ҳакида ўйлаган Маҳмудхўжа Бехбудий ўзининг қисқа умри мобайнида жуда ўзун, сермашакъат йўлни босиб ўтди. Босиб ўтдигина эмас, унда ўлимлар билан ўлмайдиган ёрkin из қолдирди. Унинг жадидчилик, драматургия, ноширлик, журналистик фаолиятидан ташқари, маърифат, яъни маориф борасидаги ишлари ҳам талайгина эди. У 1900 йилларда ёқ мактаб ишларини ривожлантиришни бошлаб юборганди. Ўша даврларда маорифда ислоҳотлар қилиш, янги мактаблар яратиш, дарсликлар ёзиб, уни жорий қилиш айтишгагина осон эди. Ўз ўйидан мактаб очиб, ўз маблағи хисобидан ҳалқнинг фарзандларини ўқитиш осон кечмади. Кетма-кет очилган мактаблари ёпилди. Ўзи эса маломат ва таъкибларга дуч келди. Ҳали одамлар янги мактабларни яхши тушунмас, фарзандларини ўқиша юбормас эди. Маърифатпарвар жадидлар эса ҳам чоризм зуғумлари, ҳам ички қолоқлик ва зиддиятлар билан курашади. Уларнинг биргина максади ҳалқ манфаатлари йўлидаги буюк foяларни илгари суриш ва ҳалқни ёппасига илмли килиш эди.

Бу йўлда Бехбудий, Мунаввар қори, Чўлпон, Фитрат, Абдулла Авлоний, Тавалди каби илғор фикрли инсонлар бирга курашади. Бехбудий 200 дан ортик мақолаларида тинимсиз ҳалққа мурожаат қилиради. Уларда истиқтол, янги ҳаёт, илму маърифат ҳақидаги фикрларини илгари сурарди: "Дунёда турмок учун дунёвий фан ва илм лозимдор, замона илми ва фанидан бебахра миllat бошқаларга поймал бўлур"—дея таъкиларди. 1903 йилда Самарқанд атрофидағи Ҳалвойи (С. Сиддикий), Ражабамин (А. Шакурий) кишлоларида янги мактаблар ташкил топди. Адид бу мактаблар учун дарсликлар тузишга киришади. Кетма-кет "Рисолаи асбоби савод" (1904), "Рисолаи жуғроғияи умроний" (1905), "Рисолаи жуғроғияи Русий" (1905), "Кито-



батул-атфол" (1908), "Амалиёти ислом" (1908), "Тарихи ислом" (1909) каби китоблари пайдо бўлади.

У тинимсиз таъкиблар, тазийклар туфайли умрими тугаб қолганини сезгач, дўйстлари, шогирдлари, ва фарзандларига васиятнома ёзади. Унда шундай сўзлар бор эди: "Маориф йўлида ишлайдурон муаллимларни бошини силангизлар! Маорифга ёрдам этингиз! Ўртадан нифоқни кўтарингиз! Туркистон болаларини илмсиз кўймангизлар!" У ўзи айтганидек икки ҳамроҳи билан ҳалқ баҳту саодати йўлида жонини фидо қилди. Зоро, ўша давр саводхонлиги ва савишининг шундан бошқасига курби етмас эди.

Бехбудий ҳазратлари таваллудининг 145 йиллигини нишонлаш асносида устоз истаган бахта эришганимиз рост ва бу нақадар кувончли эканлигини эътироф этиш жоиз.

Фулом ШОМУРОДОВ,
Самарқанд комп'ютер
технологиялари ва гидромелио-
рация коллежи директори





#Iqtibos

Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxmu maraznimi gumon etarsiz? Yoinki, sil, sil-ar-iya va maxavliknimi dersiz? Yo‘q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh, bevoya, xonavayron va g‘arib etguvchi bir dard, biz — turkistoniyarlari shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg‘acha istilo etib, butun tirikligimizg‘a sorilgon va bizni inqirozg‘a va tahlikag‘a va jahannamg‘a yumalataturgon to‘y, azo ismindaiki ikki qattol dushmanni derman

© Mahmudxo'ja Behbudiy

Besh-olti ma'raka va xudoyi, 8—10 jum'a oqshomi deb butun mahalla va qishloq xalqig‘a palov berarmiz. Ba‘zi bir bechora sag‘ir va mushtipar ayollar merosdan va haqlaridan noqis olurlar. Ba‘zi qarzxohlarni haqqi xudoyi va xayrot, noxudoyi va sharrot sababi ila kuyub ketar. Bechora o'lukni zimmasi qarzdan qutulolmay qolur. Xudo uchun aytingiz, bu xayrotmi, bu xudoyimi? © Maxmudxo'ja Behbudiy

Deyarli yuz yildan keyin ham ushbu gaplar o'z tasdig'ini topmoqda

Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz!

© Mahmudxo'ja Behbudiy

Foydalanilgan manbalar:

- *Nilufar Rasulova: . Adabiyotdan mukammal savol-javoblar III kitob.2018-yil Toshkent “Nurafshon ziyo yog`dusi”*
- *Boqijon To`xliyev :Adabiyot (majmua) III kitobi.2018-yil Toshkent*
- *Internet ma`lumotlardan foydalanildi.*

Do'stlik A'